



UDK:415.61

Kamola BUZURXANOVA,
Andijon davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: kamolabu@gmail.com

ADU dotsenti, PhD M.Karimova taqrizi asosida

"A LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PROVERBS WITH THE 'BREAD/NON COMPONENT IN COMPARATIVE LANGUAGES."

Annotation

Proverbs, as carriers of cultural and linguistic heritage, reflect the worldview, values, and traditions of a nation. Among the wide range of symbolic images in paremiology, food-related concepts occupy a central role, with bread (non in Uzbek) representing not only a staple food but also a sacred cultural symbol. This article provides a linguocultural analysis of proverbs containing the component bread/non in comparative languages. The study reveals both universal and culture-specific aspects of how bread is conceptualized in different linguistic and cultural contexts. By comparing Uzbek and English paremiological units, the research highlights similarities and differences in symbolic meanings, semantic functions, and pragmatic usage of proverbs. The findings contribute to a deeper understanding of intercultural communication and the role of food-related imagery in shaping national identity.

Key words: Proverbs, nation, culture, public, Uzbek language, English language, rituals, religions.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПАРЕМИЙ С КОМПОНЕНТОМ "НОН/ХЛЕБ" В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Пословицы, являясь носителями культурного и языкового наследия, отражают мировоззрение, ценности и традиции народа. Среди широкого спектра символических образов в паремиологии особое место занимают представления, связанные с пищей, где хлеб (нон в узбекской культуре) выступает не только в качестве основного продукта питания, но и как священный культурный символ. В данной статье представлен лингвокультурный анализ пословиц с компонентом хлеб/нон в сопоставляемых языках. Исследование выявляет как универсальные, так и национально-специфические аспекты осмысления хлеба в различных лингвокультурных контекстах. Сравнивая узбекские и английские паремиологические единицы, автор подчеркивает сходства и различия в символических значениях, семантических функциях и прагматическом употреблении пословиц. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию межкультурной коммуникации и роли пищевой символики в формировании национальной идентичности.

Ключевые слова: Пословица, нация, культура, люди, узбекский язык, английский язык, обряды, религии.

CHOG'ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA "NON/ BREAD" KOMPLEMENTLI PAREMIYALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqollar milliy madaniy va til merosining tashuvchisi sifatida xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini hamda an'analarini ifodalaydi. Paremiologiyada ramziy obrazlarning keng doirasida oziq-ovqatga oid tushunchalar alohida o'rin egallaydi. Xususan, non (o'zbek madaniyatida non) nafaqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti, balki muqaddas madaniy ramz sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada taqqoslanayotgan tillardagi non/bread komplementli maqollarning lingvomadaniy tahlili yoritilgan. Tadqiqot turli lingvomadaniy kontekstlarda non tushunchasining ham umuminsoniy, ham milliy xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek va ingliz paremiologik birliklarini solishtirish orqali maqolada ularning ramziy ma'nolari, semantik funksiyalari va pragmatik qo'llanilishidagi o'xshashlik hamda farqlar ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqotni chuqurroq anglashga, shuningdek, oziq-ovqatga oid ramzlarning milliy identitetni shakllantirishdagi rolini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Maqol, millat, madaniyat, xalq, o'zbek tili, ingliz tili, marosimlar, dinlar.

Kirish. Inson va insonlar jamiyati bilan bog'liq turkum ma'nolarni obrazli va ixcham ifoda qilishga imkon beruvchi, olamni idrok etish va bilishdagi faoliyatlarida to'g'ri yo'nalish olishga yordam beruvchi paremiyalar olam lisoniy manzarasini tashkillovchi birliklar orasida alohida o'rin egallaydi. Websterning uchinchi yangi xalqaro lug'atida paremiya (paroemia) grekcha paroimia so'ziga to'g'ridan - to'g'ri aloqador bo'lib, u maqol, maksim (odatda haqiqat bo'lgan narsani ifodalovchi yaxshi tanilgan fraza), kutilmagan, nogahoniy fikr (mulohaza)ni anglatadi. Bularni o'rganuvchi fan sohasi paremiologiya, paremiyalar lug'atini yaratuvchi sohasi

paremiografiya va paremiyalarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plam va lug'atlarni tuzuvchilar paremiograf deb atalmoqda.

Har qanday xalq, millat o'z paremiologik fondiga ega bo'lib, uning tarkibiga kiruvchi har bir maqol, matal shu xalq hayoti, tarixi, hayotiy tajribasi, orzu - umidlari, odob - axloqi, dunyoqarashi, predmet hodisalarga nisbatan munosabati, bahosi kabilarini umumlashtirgan holda aks ettiradi. Har bir xalqning paremiologik fondi va uni tashkillovchi birliklar semantik mundariyasi va mavzulari turli tuman bo'lib, ular xalq donishmandligi, donoligi va dunyoqarashi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri va adolatli

qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Shu jihatdan, paremiyalar etnos, madaniyat ijtimoiy tafakkuriga muhrlangan pand-nasihatlar, ijtimoiy regulativ qoidalar yig'indisi yoki indikatori deb atash mumkin.

Paremiyalar har bir tildagi o'rnatilgan ichki qonuniyatlar asosida millat taraqqiyotining ma'lum bir davrida millat vakillarining individual va jamoaviy ijodiy, mantiqiy va nutqiy faoliyatlari mahsuli sifatida lisoniy manzara oladi; Masalan, qiyoslang:

Yangi supurgi yaxshi supuradi = A new broom sweeeps clean = Novaya metla chisto metit; Ikki quyon ortidanyugursang, bittasini ham ushlay olmasan = If you run after two hares, you will catch neither = Za dvumya zaytsami pogonishsya, ni odnogo ne poymyosh.

Misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek, ingliz va rus maqollari gap maqomidagi paremiyalar esa-da, ular SOV, SVO qurilishga egaligi, predikativ markaz komponentlarining elliptik xususiyatlari, bo'laklar tartibi kabilarga ko'ra farqlanmoqdalar.

Maqol va matallarni to'plash amaliyoti, masalan o'zbek tilida, XI asrlarga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit turk" asarida xalq orasida faol qo'llaniladigan maqol va matallarning 400 ga yaqini, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida 300 dan ziyod she'riy vaznga solinib taqdim etilgan bo'lsa, X.Vamberining "Chig'atoy tili darsligi"da 112 o'zbek maqollari va ularning tarjimalari berilgan. Bu boradagi e'tiborga loyiq say-harakatlarning natijasi o'laroq 1987-1988 yillarda o'zbek xalq maqollarining ikki jildidan iborat ilmiy- akademik nashri chop etildi. Mazkur lug'at 13 mingga yaqin xalq maqollarini o'z ichiga olgan. Professorlar T.Mirzayev, Asqar Musoqulov va Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2016- yil nashr etilgan "O'zbek xalq maqollari"da 59 mavzu (masalan, vatan va vatanparvarlik, halollik va tekinko'rlik, yaxshilik va yomonlik, tarbiya va odat, naqd va nasiya, vaqt va fursat qadri kabilari) ostida jamlangan maqollarda so'zlarning ma'no imkoniyatlari kengligi, variantlilik, funksional turfalilik kabilari o'z aksini topgan.

Shotlandiyalik muallif J.Makadam tomonidan to'plangan va nashr etilgan "Non va nonpazlik haqidagi barcha xalqlarning maqollari" to'plami ular orasida alohida o'ringa ega.

Ingliz, shotland, fransuz, nemis, italyan, ispan, rus kabi 20 dan ziyod xalqlarning non va nonpazligiga oid maqollarni jamlagan, to'plam 1924 yili birinchi marotaba nashrdan chiqqan. To'plamdan ingliz maqollarining 231 tasi, shotland maqollarining 88 tasi, nemis maqollarining 210 tasi (nemischa ekvivalentlari bilan), rus maqollarining 42 ta tarjimalari, sharq (hind, hindu, malay, aljir, fors, turq, arab), xalqlarining 300 ga yaqin maqollari va ularning inglizcha izohlari va boshqalar o'rin olgan.

O'zbek va ingliz tilshunosligida paremiologik birliklarning umumnazariy va hususiy masalalari Sh.Raxmatullayev, M.E.Umarxo'jayev, A.Mamatov, A.Qosimov, Q.Xakimov, Sh.Almamatova, U.Rashidova, A.Teylor, V.Layder, A.Danzes, V.Vaytung, N.Norriklarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

O'zbek va ingliz xalqlari turmush tarzi va madaniyatini o'zida aks ettiruvchi olqishlar, qarg'ishlar, so'kinishlar, duolar ham maqollar, matallar, frazemalar, aforizmlar qatoriga qo'shgan holda ularning barchalarini umumlashtirgan holda paremiyalar deb ataymiz. Tadqiqot ishimizda maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritib berish maqsad qilingani bois paremiyalarning boshqa tiplariga to'xtalishni lozim topmadik.

Olamning lisoniy manzarasini tashkillovchi paremiyalarning strukturasi nisbatan barqaror bo'lib, ularning

ma'no doirasi kengayib yokitorayib borishi mumkin. Boshqacha aytganda, bu ularning tarkibiga kiruvchi so'zlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy jamoa taraqqiyotining ma'lum davrida funksional jihatdan faol, kommunikativ jihatdan relevant hisoblangan so'z (paremiya)lar ular ifodalaydigan ma'no(lar) bilan bog'liq bo'ladi.

Paremiyalar ma'no ko'lamining kengayishi xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilm - fan kabi sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, rivojlanish bilan bog'liq ekanligini a cake tin, oven, micro wave oven, toaster, bread knife, breadline, bread basket va boshqalar misolida ko'rish mumkin. Zamonaviy non mahsulotlari turlarining paydo bo'lishi ham non (bread)ma'no ko'lamini rivojlanishga olib kelgan. Masalan, shirin non, do'ltali non, yog'li non, qoqili non, bulka non, bulochka, teshik kulcha, a wedding cake, croissant, French stick, pitta, club sandwich, submarine sandwich,cheese and tomato roll, scone, waffle sponge cake va boshqalar.

Non (bread) semantikali paremiyalarning bevosita tahliliga yuzlanishdan avval J.X.Makadamning "A collection of proverbs of all nations on bread and baking" nomli maqollar to'plami mas'ul muharriri Dimitriy Vuyadinovich tomonidan to'planning kirish qismida aytilgan quyidagi jummalarni keltirishni joiz deb topdik:" Non insonning eng buyuk kashfiyotlaridan biri. Non uning asosiy taomi. Lekin non nafaqat taom, balki etnologiya, madaniyatlar va dinlarda mavjud bo'lgan ramzlardan biridir. Non orzu - umid, vijdonan qilinadigan mehnat va umumiy boylik va farovonlik ramzidir. Nonni o'z ichiga olgan marosimlar insonlarga umri mobaynida tug'ilishdan to vafotiga qadar hamrohlik qiladi. U nafaqat qadah so'zlarida, hikmatli iboralarda, o'yinlar va qasamalarda, balki qarg'ish va so'kinishlarda ham tilga olinib turiladi."

Tahlillar non komponentli paremiyalar 13 ta mavzuvi guruhlariga tegishli ekanligini va ularning umumiy jihatdan soni 43 ta ekanligini ko'rsatdi. Bularning orasida mehnatsevarlik va ishyoqmaslik mavzusiga taalluqli paremiyalar 9 tani (20.4%), kasb - hunarga taalluqli paremiyalar 4 tani (9.13%),mehr oqibat va oqibatsizlikka tegishli paremiyalar 8 tani (8.26%) , farosat va farosatsizlikka oid paremiyalar 5 tani (11.27%), qolgan mavzuviy guruhlar bo'yicha ularning miqdoriy ko'rsatkichlari uch, ikki va bittadanni tashkil etdi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida non muhim tirikchilik va yashash vositasi ekanligi barobarida uning o'zbeklar olam manzarasi turli bo'laklari tavsifi, bahosi (munosabati)ni berishda faol foydalanadilar. Bunday baholar ijobiy, neytral vasalbiy bo'lganligiga quyidagi tahlillar orqali amin bo'ldik.

Maqollarda tarkibida kelgan non leksemasi ramziylik xususiyatiga ham ega. Bunday maqollarda non mehnat orqali erishilgan, yaratilgan har qandan narsa ma'nosida qo'llanadi. Chunki, insonlar shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'z qo'llari bilan turli artefaktlarni yaratadilar, nonvoylar, hamir qoradilar, non pishiradilar, sotadilar, sotib oladilar yoki almashinadilar. Qanday hunar,kasbvakilibo'lishdan qat'iy nazar insonlarning tirikligi va hayotinin bilan bog'liq. Shu bois, turli hunar va kasb egalari tomonidan non topmoq, non deb yurmoq, (biron narsadan) non chiqarmoq (chiqarib yemoq) kabi birliklarni birdek qo'llanilishi bejiz bo'lmasa kerak.

O'zbeklar non yetishtirishning mashaqqatli jarayonini jonli tasvirlash uchun bir necha infinitivli so'z birikmalarini o'z ichiga olgan maqolni tanlaganlar: Ketmon chopmoq - olmoq - solmoq,

Qo'sh haydamoq - bormoq- kesmoq,

O'roq o'rmoq - o'ynamoq,

Hay - hay ishning oxiri -

Hamir qilmoq, non yopmoq.

Bread(non)inglizlar hayot kechirishi va yashash uchun muhim yegulik ekani "Bread is the staff of life" (non hayot manbai); The bread of the needy is their life (kambag'allarning noni ularning hayoti) maqollarida o'z ifodasini topgan. Ular qatorida kelgan Man can not live by bread alone (Inson non bilanгина tirik emas) maqolida insoniyat hayotida nonning o'zni beqiyos ekanligi e'tirof etiladi, lekin u yagona tiriklik manbai emasligi, uning qatorida suv, havo kabilar alohida o'zni va qadriga egaligiga ishora qilingan.

Bread ning ikkinchi ma'nosi Half a loaf is better than no bread (Yo'qdan ko'ra yarimta non afzal), Hope when bread is wanting oaten eats are excellent (Non yo'qligida so'li non ham zo'r bo'ladi) kabi paremiyalarda o'z ifodasini topgan.

Breadning uchunchi boylik va to'qlik ma'nosi esa "He that has store of bread may beg his milk merrily" (Noni ko'p odam so'ngi hursandchilik bilan so'raydi) maqoli orqali o'z ifodasini topgan.

Tahlillar ingliz tilidagi non komponentli paremiyalarni 14 ta mazui guruhlarga va ramziy ma'nolarga ajratish imkonini berdi.

Ingliz xalqi madaniy tafakkurida har kim o'z nonini o'zi topgani maqbulligi, va biron tomonidan berilgan non ta'nali va minnatli bo'lishi va durust emasligi Chritybread has hard crusts (tarjimasi: Ehson qilingan nonning qattiq burdasi bo'ladi) maqolida o'z ifodasini topgan bo'lsa, inson rizq - ro'zini peshona teri bilan xalol topgani afzalligi Bread of your own earning tastes sweeter (O'zing ishlab topgan nonning ta'mi shirin bo'ladi) maqolida uqtiriladi.

U yoki bu hayotiy masala bo'yicha insonlarni shoshilmay qaror chiqarishga, har bir ishni boshlashdan avval uning oqibati haqida qayta - qayta o'ylab ko'rishga, xushyorlikka chorlovchi noodatiy struktura (Vimp+Not)ga ega maqol "Crumb not your bread before you taste your porridge" (Bo'tqani totib ko'rmasdan turib non ushatma) bo'lib, uning ingliz tilidagi ma'nodoshi "Look before you leap", o'zbek tilidagi ekvivalenti "Suvni ko'rib etik yech"dir.

Inglizlar madaniyatida bread and butterfrazemasi tiriklik vositalari manosida qo'llanadi. Mazkur frazema "Don't strike against your bread and butter" (Yeb turgan nonnga qarshi bosh ko'tarma) maqoli tarkibida qo'llanib "non topayotgan mashg'ulotingdan voz kechma", "o'z foydanga qarshi ish qilma" ma'nosini anglatib keladi. Uning tagma'nosida "ko'rnamak bo'lma" semantikasi yotadi. Goddeprives him of bread who likes not his drink (O'lohu bergan ichimlikni yoqtirmagan odamni nonidan ham mahrum etadi) maqolida ham o'z ifodasini topgan.

Bread (non) ni o'zbeklar kabi insonlarga Olloh tomonidan berilgan ne'mat, rizq sifatida tushunish xos. Bu Gods crumbs are better than the world's loaves (Bir dunyo bo'lak noldan xudo bergan bir burda non yaxshiroq), Give the

birds crumbs, God gives you loaves (Qushlarga non ushoqlarini ber, xudo senga butun nonlar beradi).

Non ushog'ini olovga tashlagan kishi - shaytonning do'sti ekanligi, ro'za tutib yaxshilik qilmay non oshirgan kishilar qalbsiz ekanligi "If you throw crumbs on the fire you are feeding the devil" va "He that fasteth and doeth no good, saveth his bread but loseth his soul"; "Covetousness, as well as prodigality", brings man to a morsel of breadkabi maqollar mazmunida o'z ifodasini topgan.

Ingliz xalqi madaniyatida orzu - umid bilan yashash baxtsiz va qashshoqlarning "noni" ekanligi "Hope is the bread of the unhappy" va "Hope is the poor man's bread" maqollarida tarannum etilgan. Ushbu maqollarda umid (hope) non (bread) ga taqqoslangan va non (bread) metaforik tarzda qo'llangan.

Har kim umid bilan yashashi kerakligi uqtirilgan non qorinni to'ydirgani kabi umid ham insonlarni kelajakka ishonch bilan qarashga, yomon kunlar ortidan yaxshi kunlar ham kelishiga ishonch tug'dirishga xizmat qilgan.

Non komponentli paremiyalardan birining tahliliga yuzlanamiz. BuHe has got a piece of bread and cheese in his head(ma'nosi:Uning boshi (miyasi) da bir bo'lak non va pishloq bor). Ushbu paremiya tag ma'nosida U sarhush (mast) mazmuni bor.

Maqol tarkibidagi bread and cheese frazemasi "oddiy kishi, kambag'alning ovqati" ma'nosiga ega bo'lib, u maqolda head (bosh) somatizmi bilan birikib, okkazonal (mast-alast)ma'no kasb etgan. Ushbu paremiya barqaror tarkib va umumiy ma'noga ega ekanligi uni frazeologik chatishma maqomidagi paremiya deb atashga asos bo'ladi. O'zbek tilida buning ekvivalenti kuzatilmagani uchun biz "Aroqxo'ning noni aroq" ekvivalentini taklif etamiz.

Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida nonning pragmatik imkoniyatlari yuqoriligi, u qator ijobiy ramziy ma'nolarga egaligi, unda implitsit ma'nolar tizimi mavjudligi, emotsionallik va ifodalilik yuklamasi yuqoriligi non (bread) lingvokulturemasining ingliz va o'zbek xalqlari uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi. Jadvallardagi paremiyalar tahlili ingliz va o'zbek tillari bu borada o'ziga xos semantik makoniga ega bo'lib, bu makon non (bread) lingvomadaniyatning u yoki bu qismidagi o'ziga xoslik tomonlarni farqlab, tushunib olishga yordam beradi.

O'zbek madaniyatida nonning ramziy imkoniyatlari keng ekanligi kuzatildi. O'zbek nonining manmanlik,hunar, payg'ambar, mardlik, baraka, vaqt qadri, Vatan, hurmat/ qadr simvolikasi bo'lib kelish imkoniyatlari ingliz paremiyalarida mavjud emasligi aniqlandi.

Ingliz madaniyatida bread omad, maqsadga oson erishish ramzi uning o'ziga xosligidan darak beradi. Bunday farqli jihatlari bu ikki xalq vakillari nonni ona tiliprizmasi orqali qabul qilganliklari bois non haqidagi tasavvurlari ko'pincha lingvo o'zigaxoslik kasb etadi.

АДАБИЙОТЛАР

1. Webster's Third New International Dictionary of the English Language, Unabridged. - Springfield, MA: Merriam-Webster Inc., 1993. - 2662 p. - P.1643
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. - Toshkent: Universitet, 2016. - B. 420.
3. Умарходжаев М. Очерки по современной фразеологии. Монография. - Тошкент: Фан, 1977. - 103 с.
4. Mamatov A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va grammatik norma muammolari. - Toshkent: Fan, 1991. - B. 274.
5. Қосимов А. Ўзбек тилида фразеологик бирикмалар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 160 б.
6. Ҳақимов Қ. Миллий тилимизнинг нутқий маданияти. - Тошкент: Фан, 2006. - 204 б.
7. Алмаматова Ш. Ўзбек тилида мақол ва маталларнинг семантик-стилистик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2010. - 132
8. Рашидова У. Английская и узбекская паремология: лингвокультурологический и семиотический аспекты. - Ташкент: Фан, 2012. - 168 с.
9. Taylor A. The Proverb. - Cambridge: Harvard University Press, 1931. - 276 p.
10. Лайдер В. М. Русская паремология: Теория и практика. - Москва: Наука, 1986. - 240 с.
11. Данзис А. М. Пословицы и поговорки в системе языка. - Ленинград: Наука, 1980. - 214 с.